

**INGLIZ TILSHUNOSLIGIDA SO‘Z VA SO‘Z BIRIKMALARI
TADQIQINING ILMIY-KOGNITIV ASOSLARI**

Muratxodjaeva Feruza Xotamovna

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Oriental universiteti,

G‘arb tillari kafedrası dosenti

Insoniyat tarixiy taraqqiyoti davomida borliqni o‘rganish asosida ma’lum bir tushunchaga, bilimga ega bo‘la bordi. Kishilik tarixining ilk davrlarida olamni idrok etish, voqea-hodisalarni sezgilar orqali qabul qilishda barcha insonlarga xos umumiy xususiyatlar namoyon bo‘lgan. Vaqt o‘tgani sari, kishilarning yashash muhiti, tarixiy shakllanishi, ijtimoiy munosabatlar o‘rtasida farqlar yuzaga kelib, olam manzarasining milliy-mental idroki shakllana boshladi.

Dunyo ilmida tilning tarixiy taraqqiyoti, tilshunoslik maktablari qarashlarini tahlil qilish negizida struktur tilshunoslik oqimi yuzaga keldi. Tilni sistema sifatida tahlil etish, til sathlarini ajratish, ichki xususiyatlarini va o‘zaro munosabatini ilmiy asosda o‘rganish, tilning ramzlar tizimi sifatidagi belgilarni qayd etish, til birliklari o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etdi. “Immanentlik” kuchayib, til hodisalarini tahlil qilish til taraqqiyotini ta’minlashga yo‘naltirildi. Natijada inson omili e’tibordan chetda qoldi.

XX asr oxirlarida til va jamiyat, til va tafakkur, til va nutq munosabatida til egalari belgilariga ahamiyat berila boshladi. Tildan foydalanishda shaxs omilining belgilovchi o‘rin tutishi antroposentrik paradigmaga markaziy planda e’tibor qaratilishiga zamin yaratdi. Antroposentrik paradigmada til hodisalari tildan foydalanuvchilarning lisoniy bazasi, leksikoni, bilim darajasi, qobiliyati, madaniy ongiga aloqadorlikda tahlil etila boshladi. Kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, psixolingvistika, pragmalolingvistika kabi antroposentrik paradigma yo‘nalishlari shakllandi.

Kognitiv inglizcha “cognize” – “bilmoq”, “anglamoq”, “idrok etmoq” ma’nosidagi so‘z bo‘lib, dastavval, falsafiy tushuncha sifatida qo‘llangan. Chunki bilish, dastavval, atrof-olam haqida ma’lumotga ega bo‘lish, borliq belgilarini o‘zlashtirishni ifoda etgan. Dastlabki bilishda sezgi a’zolari belgilovchi o‘rin tutgan bo‘lib, miya faoliyatining boshqaruv funksiyasi aqliy faoliyatni yuzaga chiqardi. Bilim ong orqali sintez qilinadigan, anglanadigan jarayon mahsuliga aylandi. Kognitologiya alohida soha sifatida shakllandi. Keyinchalik, kognitologiyaning tilshunoslik bilan aloqadorligi natijasida “kognitiv tilshunoslik” yuzaga keldi. Kognitiv tilshunoslik olamni tafakkur orqali idrok qilish, olam manzarasining lisoniy ongda voqelanishi, nutq mexanizmining neyrofiziologik, psixologik, biologik mohiyat sifatida namoyon bo‘lish xususiyatlarini, ijtimoiy, lingvomadaniy voqelikni shaxs omili prizmasi nuqtai nazaridan talqin qiladigan soha hisoblanadi. Kognitiv

tilshunoslik masalalari til vositasida voqelikni, narsa-hodisani his qilish, anglash va tasavvur qilish bilan bevosita aloqadordir.

Kognitiv funksiya tilning ifoda etish, uzatish, saqlash va tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilishidir.

Tilning ijtimoiy funksiyalari kognitiv funksiyasi bilan aloqadordir. Kommunikativ funksiya tilning kishilar o‘rtasidagi muloqot, aloqa-munosabat vositasi sifatida xizmat qilishida namoyon bo‘ladi. Kognitiv funksiya anglash, bilish, ong ifodasida aks etadi.

Kognitiv lingvistikaning shakllanishi ham, aksariyat yangi yo‘nalishlarning shakllanishida kuzatilganidek, shu sohaga bag‘ishlangan ilmiy yig‘in bilan bog‘liq. XX asrning oxirlarida Germaniyaning Duysburg shahrida o‘tkazilgan simpozium kognitiv tilshunoslik yo‘nalishiga hamda uning ijro organi bo‘lgan “Xalqaro kognitiv lingvistika assosiasiyasi” (International Cognitive Linguistics Assosiation)ga, kognitiv lingvistika bo‘yicha doimiy nashr hisoblangan Cognitive Linguistics jurnaliga, Cognitive Linguistics Recherche monografiyalari seriyasiga asos soldi.

Kognitiv tilshunoslik til va tafakkur munosabatini yangi bosqichda tahlil qilishni boshladi. Neyrofiziolog, psixolog, vrachlar kognitiv tilshunoslikda yangicha yo‘nalishni boshlab berdilar. Bu yo‘nalish ta’sirida neyrolingvistika shakllandi. Yangi yo‘nalishlardagi ilmiy tadqiqotlar til faoliyati inson miyasida sodir bo‘lishi, til faoliyatining (til o‘zlashtirish, tinglash, gapirish, o‘qish, yozish va boshqalar) kabi ko‘rinishlari miyaning turli nuqtalari bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi. Kognitiv lingvistika uch asosiy qismga bo‘linadi: 1. Kognitiv semantika – leksik semantika bilan shug‘ullanadigan soha. 2. Kognitiv grammatika – morfologiya va sintaksis bilan hamda grammatika bilan aloqador boshqa bo‘limlar bilan shug‘ullandigan soha. 3. Kognitiv fonologiya.

Z.D.Popova, I.A.Sterninlar kognitiv tilshunoslikning quyidagi asosiy yo‘nalishlarini keltirganlar:

Kulturologik - konseptlarni madaniyat elementi sifatida talqin etadi;

Lingvokulturologik – konseptlarning milliy qadriyatlar va milliy madaniyat xususiyatlari bilan aloqador bo‘lgan milliy lingvomadaniyat elementi sifatida o‘rganadi;

Mantiqiy –konseptlarni til shakllaridan alohida mantiqiy metodlar orqali o‘rganish;

Semantik-kognitiv- tilning leksik va grammatik semantikasini konseptlar mazmuniga olib kiruvchi vosita sifatida, ularning til semantikasidan konseptosferaga yo‘naltirilgan modellarini o‘rganadi;

Falsafiy semiotik - kognitiv asoslarni belgili tizim sifatida o‘rganadi.

Kognitiv tilshunoslik til va tafakkur munosabatini ilmiy asosda tahlil qiladi. Tilning kommunikativ, emosional-ekspressiv, akkumulyativ funksiyalaridagi tafakkurning, mantiqiy tushunchalarning o‘rnini yoritishga xizmat qiladi.

Tilshunoslik masalalari kognitologiya muammolari bilan bevosita bog‘liq. Lingvistik tadqiqotlarning o‘rganish ob’ekti til tizimi, lisoniy faoliyat va uning mahsuli ekanligi, sistem-struktur tilshunoslik, psixolingvistika, soslolingvistika kabi bir qator lingvistik sohalarda so‘z, so‘z birikmasi, gap va matn kabilarning tarkibi, tuzilishi, semantik

xususiyatlari talqini integrativ yondashuv zarurligini ta’kidlaydi: tilshunoslik, psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik kabi sohalar hamkorligi kognitiv faoliyat asosida voqelanuvchi hodisalarni o‘rganadi. Kognitiv tilshunoslik ham insonning bilish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi fanlar tarkibiga kiradi. Lingvokognitiv tahlilning asosi sifatida lisoniy bilim tanlanadi.

Nutqni tavsiflashda kognitiv tilshunoslik psixolingvistika, neyrolingvistika, etnolingvistika, lingvokulturologiya sohasiga aloqadorlikda ish ko‘radi. Tilning kognitiv bilim vositasidagi mohiyati tadqiqotlarda yoritilgan.

Dunyo tilshunosligida kognitiv tilshunoslikning nazariy asoslari yoritib berilgan. Kognitiv tahlil, asosan, semiotika, metafora masalalari asosida amalga oshirilgan. Kognitiv semantika ingliz tili misolida tahlil etilgan. Kognitiv tilshunoslikning terminologik apparati, tayanch tushunchalari izohlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Muratkhodjayeva, F. (2024). Cognitive Linguistics Theory in Anthropocentric Paradigm. International Journal of Industrial Engineering, Technology & Operations Management, 2(2), 63-70.

2.Xotamovna, M. F. (2025). COGNITIVE PSYCHOLOGY AND COGNITIVE LINGUISTICS INTERACTION WITH OTHER DISCIPLINES. PEDAGOG, 8(1), 105-108.

3.Xotamovna, M. F. (2025). KOGNITIV-SEMANTIK TAHLILNING NAZARIY ASOSLARI. SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 8(1), 188-190.

4.Hotamovna, F. (2024). Cognitive-semantic analysis of technical terms combinations and their expression for training engineers. In BIO Web of Conferences (Vol. 84, p. 04027). EDP Sciences.

5.Xotamovna, M. F. (2024). MILLIY-MADANIY BIRLIKLAR TARJIMALARINING BADIY MATNLARDA BERILISHI. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS, 3(34), 179-181.

6.Muratkhodjaeva, F. X. (2022). Linguistic definition of conversion as a method of formation of words and phrases in English linguistics. Confrencea, 2(2), 61-64.